


**SAMARQAND VILOYATINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2019 yil yanvar-aprel \*)


2019 yilning yanvar-aprel oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3872,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 108,7% ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 584,9 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 175,4%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 3287,6 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 101,8%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 472,0 mlrd. so`m (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 91,9%)ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so`m)**

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari, Jomboy, Payariq va Samarqand tumanlarida qayd etildi.

\*-dastlabki ma'lumot

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,4% ga o'sdi va 584,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,1% ulushiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 3287,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,8 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,9 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil yanvar-aprel




2019 yil yanvar-aprel



Yirik korxonalar  
 Kichik tadbirdorlik

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9%), Nurobod (99,9%), Bulung'ur (99,8%), Tayloq (99,8%), Qo'shrabot (99,8%) va Narpay (99,7%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,1% ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (42,0%), Samarqand tumanida (35,5%) va Pastdarg'om tumanida (5,0%) kuzatildi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>584,93</b>	<b>175,4</b>	<b>3287,6</b>	<b>101,8</b>
Samarqand shahri	476,95	2,2 m.	658,4	87,5
<i>Kattaqo'rg'on shahri</i>	0,27	52,0	223,3	106,5
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	0,35		213,4	105,4
Jomboy	0,43		115,4	107,9
Ishtixon	3,54		163,1	104,3
Kattaqo'rg'on	0,65		174,8	104,7
Narpay	0,35		135,8	105,9
Nurobod	0,19		146,0	104,5
Oqdaryo	0,86		85,8	104,2
Payariq	0,75		146,9	106,0
Pastdarg'om	13,57	52,0	260,2	110,0
Paxtachi	0,59		124,2	103,4
<b>Samarqand</b>	<b>76,99</b>	<b>86,3</b>	<b>139,9</b>	<b>122,5</b>
Tayloq	0,23		108,6	105,6
Urgut	8,95	6,8 m.	466,2	103,3
Qo'shrabot	0,26		125,6	105,3

### Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri 29,3%, Urgut tumani 12,3%, Pastdarg'om tumani 7,1%, Kattaqo'rg'on shahri 5,8%, Samarqand tumani 5,6%, Bulung'ur tumani 5,5%, Kattaqo'rg'on tumani 4,5%, Ishtixon tumani 4,3% va Payariq tumani 3,8% chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Chakana savdo tovar aylanmasida tumanlarning ulushi, (%)



2019 yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1017,4 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5% ga ko`paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o'sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Kattaqo'r'g'on shahri (2537,7 ming. so'm), Samarqand shahri (2105,3 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (1167,4 ming. so'm) hissasiga to`g`ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko`rsatkichlar Tayloq (554,4 ming. so'm), Oqdaryo (556,1 ming. so'm) va Payariq (603,7 ming. so'm) tumalarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

Hududlar nomi	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1017,4</b>	<b>106,5</b>
Samarqand shahri	2105,3	115,3
Kattaqo'rg'on shahri	2537,7	104,9
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	1167,4	103,4
Jomboy	689,3	105,4
Ishtixon	671,3	104,2
Kattaqo'rg'on	655,8	103,0
Narpay	651,6	104,3
Nurobod	992,4	102,5
Oqdaryo	556,1	104,1
Payariq	603,7	104,2
Pastdarg'om	789,8	102,1
Paxtachi	881,6	101,7
Samarqand	879,0	104,4
Urgut	958,5	102,3
Tayloq	554,4	103,6
Qo'shrabot	979,9	103,2


2019 yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4% ni tashkil etib, 91,6 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 11,0% o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,4% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

## SAMARQAND VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar-aprel\*)

Joriy yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1646,2 mld. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 15,9% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko`ra 1051,8 mld. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,2% ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 63,9% ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 594,4 mld. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 60,8% ga o'sdi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida  
yirik va kichik korxonalarning ulushi, (%)**



\*-dastlabki ma'lumot

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-85-23  
66-235-65-80